

“Inson qadri-ulugʻ, xotirasi muqaddas”

Maktabda 9 may –Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan maktabimizda “Inson qadri-ulugʻ, xotirasi muqaddas” shiori ostida oʻquvchilar oʻrtasida maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar, sport musobaqalari va turli koʻrik-tanlovlar oʻtkazildi. 2014 yil “Sogʻlom bola yily ” Davlat dasturi yuzasidan oʻquvchilarni yanada sogʻlomlashtirish, ularni jismonan va maʼnan yetuk va barkamol qilib tarbiyalash maqsadida 2014 yil 7 may kuni maktabimiz sport maydonida oʻzbek futbolchilari Mixail An, Vladimir Fyodrov, Sirojiddin Eshboʻtayev kabi 1979 yil samoda sochilgan yulduzlar xotirasiga bagʻishlab , **“ Tarixiy xotirasiz kelesak yoʻq”**



shiori ostida futbol musobaqasi tashkil etildi. Musobaqani maktabning jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi Bobomurzayev Sodiq Haqnazarovich tashkil qildi. Musobaqada “Yosh futbolchilar” toʻgʻarak aʼzolari ishtirok etishdi. Musobaqa boshlanishida maktabning jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi Bobomurzayev Sodiq Haqnazarovich tomonidan oʻquvchilarga “Paxtakor” faxriy jamoasi toʻgʻrisida maʼlumot berildi. Musobaqada 5 ta 5-sinf jamoasidan 35 nafar oʻquvchilar ishtirok etdilar. Musobaqa juda koʻtarinki ruhda tashkil qilindi. Musobaqa davomida yoshlar oʻrtasida doʻstona munosabatlar shakllantirildi, shu bilan birga oʻquvchilarning shijoatlilik, chidamlilik, epchillik kabi sifatleri yana bir bor kuchaytirildi. Futbol musobaqasida 5-“A ” sinfining “Shunqorlar” jamoasi I oʻrinni, 5 –“V ” sinfining “Mashʼal” jamoasi II oʻrinni, 5 –“ B” sinfining “Dinamo” jamoasi III oʻrinni egalladilar va musobaqa soʻngida gʻolib jamoalar maktab maʼmuriyatining diplom va esdalik sovgʻalari bilan taqdirlandilar.

